



TOSHKENT SHAHRIDA KO‘P XONADONLI UYLAR QURILISHI: DAVRLAR VA BUNYODKORLIK

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15497975>

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti “Arxitektura va shaharsozlik” kafedrası mudiri
Isametdinova Shahlo Avadjanovna

Annotatsiya

Maqolada 1960-yillardan boshlab Toshkent shahrida ko‘p qavatli uy-joy qurilishi rivojlanganish bosqishlari yoritilgan. 1980-yillarga qadar asosan 4-5 qavatli uylar qurilgan bo‘lsa, keyinchalik 9 va 16 qavatli turar-joy binolari paydo bo‘la boshlagan. Mustaqillik yillarida qurilish jarayonida muhim o‘zgarishlar yuz bergan bo‘lib, 1990-yillarda xususiy qurilish kompaniyalari faol ishtirok eta boshlagan. 2004-2008 yillarda qurilish deyarli to‘xtagan bo‘lsa, 2015 yildan boshlab yana rivojlana boshlagan. Qurilish materiallarining tanlanishida ham vaqt o‘tishi bilan sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Hozirgi kunda Toshkentda zamonaviy texnologiyalar, energiya samaradorligi va ekologik dizaynlar qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, me‘moriy-tarxiy sifatning pasayishi muammosi ham mavjud.

Kalit so‘zlar: ko‘p xonadonli uylar, o‘rta qavatli, ko‘p qavatli, turar-joy binolari, energiya tejankorlik, zamonaviy texnologiyalar, yashil arxitektura.

Аннотация

В статье рассматривается развитие строительства многоквартирных домов в Ташкенте с 1960-х годов. До 1980-х годов в основном строились 4-5-этажные

дома, позже начали появляться 9- и 16-этажные жилые здания. В годы независимости произошли значительные изменения в строительной отрасли: в 1990-х годах активно начали участвовать частные строительные компании. В период с 2004 по 2008 год строительство практически остановилось, но с 2015 года снова начало развиваться. Изменения также коснулись выбора строительных материалов. Сегодня в Ташкенте применяются современные технологии, энергоэффективные и экологичные решения, но при этом наблюдается снижение качества архитектурно-планировочных решений.

Ключевые слова: многоквартирные дома, среднеэтажные, многоэтажные, жилые здания, энергоэффективность, современные технологии, зеленая архитектура.

Annotation

The article discusses the development of multi-apartment housing construction in Tashkent since the 1960s. Until the 1980s, mainly 4-5-story buildings were built, but later, 9- and 16-story residential buildings began to appear. During the years of independence, significant changes occurred in the construction sector: in the 1990s, private construction companies became actively involved. From 2004 to 2008, construction nearly came to a halt, but since 2015, it has resumed growth. The choice of construction materials has also evolved over time. Today, modern technologies, energy-efficient solutions, and eco-friendly designs are being implemented in Tashkent, but at the same time, there is a decline in the quality of architectural and planning solutions.

Key words: apartment buildings, mid-rise, multi-story, residential buildings, energy efficiency, modern technologies, green architecture.

Kirish

O'zbekiston butun dunyoga o'zining ko'p asrlik tarixga ega sivilizatsiya beshiklaridan biri sifatida tanilgan. Ayniqsa O'zbekiston me'morchilik borasida qadimdan dunyoga ma'lum va mashxur bo'lgan. Mamlakatimizda ko'plab binoar qatorida turar-joylar arxitekturasiga alohida e'tibor qaratilgan. Toshkent O'zbekistonning poytaxti va eng yirik shahri sifatida, ko'p xonadonli turar-joy binolari arxitekturasida o'ziga xos va boy tarixi bilan ajralib turadi. Shaharning arxitektura merosi asrlar davomida shakllangan va har bir davr o'ziga xos uslub va yondashuvlar bilan ifodalangan. Toshkentda ko'p xonadonli turar-joy binolari arxitekturasining rivojlanishi shaharning tarixiy va madaniy kontekstida muhim o'rin tutadi.

Turar uylar nafaqat boshpana, yashash muhiti sifatida, balki insonlarni estetik zavqlantiruvchi hamda tashqi ta'sirlardan maksimal qulay ravishda himoya qiluvchi muhit sifatida ham qaralgan. Turar joylar qurilishi asosan iqlimga mos, tabiiy va ekologik ashyolardan, somonli loy guvala, paxsa, xom g'isht kabi materiallardan foydalanib, tabiiy insolyatsiya va ventilyatsiya tizimlari puxta o'ylangan holda barpo etilgan. XX – asrga kelib turar uylarda ham pishiq g'isht, keyinchalik esa temirbeton ashyolaridan foydalanila boshlangan. Qurilish materiallari rivoji o'z navbatida ko'p xonadonli 2, 3, 4 va undan baland turar uylar qurilishiga sabab bo'lgan.


Xozirgi kunda axoli soni keskin o'sib borayotganligi sababli, ayniqsa turar-joy binolari shahar arxitekturasining asosiy qismini tashkil qilib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida turar-joylar keskin ko'p qurilishi, loyihalash va qurilish jarayonlari qisqarishiga olib kelmoqda. bunday tezlashuv esa qurilish sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymasligi ilmiy o'rganishlar jarayonida o'z tasdig'ini topib kelmoqda. Maqolada Toshkent shahridagi ko'p xonadonli turar uylar evolyutsiyasi, rivojlanish bosqichlari, ularning hajmiy-tarxiy yechimlaridagi tajriba o'rganilgan. Ushbu maqolada Toshkentdagi ko'pxonadonli turar joy binolarini biz 4 etapga bo'ldik:

1. Toshkentdagi inqilobgacha bolgan davr;
2. Inqilobdan keyingi 1966 yilgi zilzilagacha bo'lgan davr;
3. 1966 – yildagi zilziladan keingi davr;
4. Mustaqillik davri.


Toshkentda inqilobgacha bo'lgan davrda foyda keltiruvchi ko'p kvartirali turar-joy binolari bo'lmagan. Ularning aksariyati olti-sakkiz xonadonli bir qavatli binolar bo'lib, kirish qismi umumiy daxlizlar bilan birlashgan va ba'zan ikkita xonadon uchun umumiy koridorga ega bo'lgan. Xonadonlar odatda hovli ichida, alohida xo'jalik binolarida joylashgan edi. Bunday ko'p kvartirali uyda o'rtacha daromadli odamlar yashagan. Kambag'al odamlar galereya tipidagi ko'p kvartirali uylarda turar joydan foydalanganlar. Uyda ochiq galereya bo'ylab ikki qavatda joylashgan bir va ikki xonali kvartiralar bir tomonlama yo'naltirilgan va barcha derazalari hovliga qaragan. Yordamchi xonalar hovlining chuqur qismida joylashgan edi. Biroq, bu davrda ko'p xonadonli turar-joy binolari Markaziy Osiyo shaharsozlik amaliyotida keng tarqalmagan. Shaharlar qiyofasida o'z izini qoldirgan binolarning eng ko'p qo'llaniladigan turi kichik ikki va uch xonadonli uylar edi. Ular orasida ko'pincha hovliga olib boruvchi ravoqli yo'lakning ikki tomonida ikkita xonadon joylashgan uylar bo'lgan. Ba'zan bu xonadonlarning koridorga kirish eshigi bo'lgan va kichik tor teraslar yashash xonalarini hovlining tubidagi yordamchi xonalari bilan bog'lab turgan.

“Zerabulaskaya” ko'chasida uchta keng xonadonli nisbatan yaxshi jihozlangan ikki qavatli uy joylashgan bo'lgan (1-rasm). Birinchi qavatda, markaziy ravoqli o'tish joyining ikki tomonida, taxminan bir xil tarxga ega ikkita kvartira joylashgan. Ular kichkina hojatxonaga ega bo'lgan, kirish zali va uyning ikki tomonidagi beshta keng va yorug' xonadan iborat bo'lgan. Uyning o'ng yarmida xonalardan birini ikkinchi qavatga chiqish zinapoyasi egallagan. Birinchi qavatdagi kvartiraning orqa kirish eshigi ham shu erda joylashgan. Ikkinchi qavatdagi kvartira markazida keng hol bo'lib, u erdan yo'laklar yashash xonalariga, hammomga va hovliga qaragan balkonga olib borgan. Xonalarning o'zaro yaxshi bog'lanishi, ularning o'zaro to'g'ri nisbati, asosiy

xonalarning binoning sharqiy tomonida joylashganligi va tabiiy ventilyatsiya mavjudligi, bu uyda tajribali me'mor-quruvchining qo'li borligini ko'rsatadi.



Bunday sharoitda bir va ikki qavatli uylar, ayniqsa qasrlar yanada yaxshi yashash sharoitlarini yaratdi va uy va yashil hovli maydoni o'rtasidagi maksimal aloqani ta'minladi.



1-rasm. “Zerabulakskaya” ko'chasidagi 2 qavatli turar joy binosi.
Umumiy ko'rinish va tarx.

Inqilobdan keyingi 1966 yilgi zilzilagacha bo'lgan davrga kelib uy-joy me'morchiligida sezilarli o'sish bo'ldi. Bu davrga kelib ko'p kvartirali 2, 3 va 4 qavatli uylar asosan shaxar markazlarida qurildi. Ularning me'morchiligida klassik va milliy uslubning did bilan qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Bularga misol qilib 1930-yillarda barpo etilgan “Mutaxassislar” uylarini olishimiz mumkin. Bunday uylarning shaharda bir nechta ko'rinishlari barpo etilgan. (2-rasm).

A.



B.




2-rasm “Mutaxassislar” uylari: A. O’rda, 1930-yil; B. Turob To’la ko’chasi bo’ylab joylashgan uy.

“Mutaxassislar” uylari yaxshi o’ylangan tarxli, barcha qulayliklarga ega, xonalar keng va yorug’, tashqi ko’rinishlari did bilan bezatilgan bo’lib, o’z nomi bilan bu uylar asosan turli soxalarda katta yutuqlarga erishgan soxa mutaxassis olimlar uchun berilgan.

Urushdan keyingi yillarda, 1944- yilgacha Toshkentda uy-joy qurilishi yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha amalga oshirilgan, asosan 1-2 qavatli past qavatli binolar, 3-4 qavatli turar-joy binolari tanlab individual loyihalar asosida amalga oshirilgan. Bu davrga kelib shaharga urushdan oldin boshlangan to'qimachilik kombinati shaharchasi qurilishi davom etgan, A. Navoiy, yangi Moskva, Shota Rustaveli va boshqa ko'chalar

bo'ylab 3-4 qavatli uylar qurilgan. 1948- yilda “Azgosproekt” tomonidan 210-seriyali ikki qavatli uylar (arxitektorlar I. Rachinskaya va V. Ozerov) namunaviy loyihalarining birinchi seriyasi loyihalashtirildi va barpo etildi (3-rasm).¹



3-rasm. 1948- yilda “Azgosproekt” tomonidan qurilgan 210-seriyali ikki qavatli uylar (arxitektorlar I. Rachinskaya va V. Ozerov)


Ushbu loyiha 2 xonali xonadonlardan iborat 1 yoki 2 sektsiyali qilib barpo etila boshlangan. Bu uylarda uy-joyga extiyoji bor axoli qatlami yashagan.

¹ www.sk-tula.ru. История типового строительства в Ташкенте.

1950- yillardan boshlab, ko'p xonadonli turar-joy binolari shaharning markaziy ko'chalarida qurila boshlagan. Shaharda yiliga bir qancha ko'p xonadonli turar-joy binolari qurib bitqazilgan. Bularga misol tariqasida 1944- yili arxitektorlar M. Bulatov va Karashlar tomonidan A.Navoiy ko'chasi bo'ylab loyihalaniib, 1946 yillarda qrilishi boshlangan 3 qavatli turar joy binolarini olish mumkin (4-rasm).



A.



B.

4-rasm. 3 qavatli, milliy uslibdagi ko'p xonadonli uylar: A. A.Navoiy ko'chasi bo'ylab; B. O'rda Anhor bo'yi bo'ylab barpo etilgan uylar.

1966 – yildagi zilziladan keyngi davr. 1966 yilda Toshkentda yuz bergan tarixdagi eng kuchli zilzila 8 balli kuchga ega bo'lib, uning epitsentri Toshkent markazida joylashgan edi. Shaharning markaziy qismidagi deyarli barcha bino va inshootlar

vayron bo'lgan. Shaharni qayta qurish va deyarli yangi zamonaviy shaharni qurish, yangi yondashuv va innovatsion yechimlarni talab etgan. Bunday vaqtda aholi uchun tez va onson quriladigan turar-joylar kerak bo'lgan. Shu sababli shaharda 2 qavatli, yog'ochdan qurilgan ko'p xonadonli uylar aholiga topshirilgan (5-rasm).²



A.



B.

5-rasm. A va B. 2 qavatli yog'och uylar. Toshkent, "Sputnik" massivi, 1966 yil.

² www.gazeta.uz. Как менялось строительство многоэтажек в Ташкенте.

1960-yillardan boshlab Toshkentdagi ko'p kvartirali uylar har yili shaharning yashash maydonini taxminan 300 ming kvadrat metrga to'ldiradi. 1980-yillarning boshlariga qadar shaharda asosan 4-5 qavatli uylar qurilgan. 1980-yillardan boshlab "5 qavatli binolar" estafetani ushlab qolishdi, birinchi 9 ba 16 qavatli uylar paydo bo'la boshladi (6-rasm). Toshkent hududi 1917 yilga qaraganda uch barobarga ko'paydi va 15 ming gektardan 44 ming gektarga yetdi, shu bilan birga qurilish surati kamaymadi.

Mustaqillik davri. 1990-yillarda mustaqillikning e'lon qilinishi bilan Toshkentda yangi iqtisodiy sharoitlarda qurilish bozorida o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrga kelib aholi soni o'sishda davom etdi, ko'plab yaxshilangan loyihalar asosida ko'plab **“Bank uylari”** qurildi. Xususiy qurilish kompaniyalari ko'p qavatli uy-joylar qurilishiga jiddiy kirishdi. Faqatgina 2004 yildan 2008 yilgacha qurilish deyarli to'liq to'xtatildi. Bu ko'p qavatli uylarni qurishda haqiqiy tinchlik edi.



A.  pastvu.com/733580



B.

6-rasm. A. 1976-78 yillar “Guncha” massivi. B. 16 qavatli, 1- monolit uy “Marvarid”.

2015 yilda qurilish yana avj oldi, 2019 yilda shaharda 463 ta yangi uy paydo bo‘ldi, keyin statistik ma’lumotlar kamaydi. Vaqt o‘tishi bilan qurilish materiallarini tanlashga yondashuv o‘zgardi. Bu ishning shoshilinchligi va iqtisodiy vaziyat bilan bog‘liq. Masalan, 1966 yilda shahar oldida tez va ko‘p qurilish vazifasi qo‘yilganligi sababli yog‘ochdan foydalanilgan. Ushbu qurilish materiali bu yildan oldin ham, keyin ham deyarli qo‘llanilmadi.

A.



B.



7-rasm. A. Sergeli timani 9-qavatli turar joy binosi. B. 16-qavatli turar-joy binosi.

2020 yilda poytaxtda qurilayotgan binolar soni keskin oshdi. Ilgari Toshkentda balandligi 12 qavatdan ortiq bo'lgan atigi 30 ga yaqin turar-joy binolari mavjud edi. Shu tariqa shahar va qishloq hududlarida har xil uslubdagi jamoat va turar-joy binolari qurila boshladi. Bu davr mobaynida har xil qurilish materiallaridan foydalanilgan. Asosan zilziladan so'ng yog'och materiali keng qamrovli bo'lgan bo'lsa, undan keyin pishgan g'isht va temir beton urfga kirdi. Bularning afzallik taraflari shundaki, bu uylarni mustahkamligi va qavatlar sonini ko'payishiga sabab bo'ldi.



8-rasm. “Darxon Avenue” turar-joy loyihasi.

Xulosa

Toshkent shahrida ko‘p qavatli uy-joy qurilishi bosqichma-bosqich rivojlanib, turli davrlarda iqtisodiy va texnologik omillar ta‘sirida o‘zgarib kelgan. Avvaliga kam qavatli uylar ustuvorlik qilgan bo‘lsa, keyinchalik baland binolar qurila boshlagan. Qurilish materiallarining tanlanishi davr sharoitlariga bog‘liq bo‘lib, zamonaviy texnologiyalar va ekologik yondashuvlar bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq qurilishning tezlashishi me‘moriy sifatga ta‘sir ko‘rsatib, rejalashtirish va dizayn masalalarida muayyan muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, shahar qurilishida me‘moriy sifat va ekologik barqarorlikka e‘tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.M. Ubaydullayev, M .M . Inog‘omova.Turar-joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari. Arxitektura yo ‘nalishidagi oliy o ‘guv yurtlari bakalavriyatlari uchun darslik.:Voris Nashiriot .Toshkent- 2009.
2. Шин С.Р. Архитектурно-планировочная организация многоэтажных жилых комплексов в странах СНГ.
3. www.gazeta.uz. Как менялось строительство многоэтажек в Ташкенте. Международный журнал «Молодой учёный» 2021/4.